



**MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI
O‘QUVCHILARNI NUTQINI O‘STIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI
ADABIYOTLARDA O‘RGANILISHI**

Qo‘ychiyeva Zarnigor Abdmannob qizi

TDPU mustaqil izlanuvchi

Tel: +998 88 473 20 90

E-mail: zarnigorqoychiyeva4@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilar nutqini o‘stirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalarining adabiyotlarda tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Nutqiy malaka, boshlang‘ich sinf, shakllanish, mezonlar, ko‘rsatgichlar.

Абстрактный: В статье представлен анализ литературы по вопросам совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов к развитию речи учащихся.

Ключевые слова: Речевые навыки, начальный класс, формирование, критерии, показатели.

Abstract: The article describes the literature analysis of the issues of improving the methodical preparation of future primary school teachers for the development of students' speech.

Keywords: Speaking skills, primary grade, formation, criteria, indicators.

Kirish.

Ta'lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to'g'risidagi qonun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni nutqini shakllantirish, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi va amaliyotida o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Bu o'zgarishlar me'yoriy o'quv-metodik adabiyotlarda muayyan darajada o'z aksini topgan. Lekin, ularga hozirgi talablar nuqtayi nazaridan tanqidiy yondoshmoq talab etiladi.

Nutq malakalarini egallash ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning eng zarur shartlaridan biridir. Maktabda ta'limning maqsadlari xilma-xildir. O'z fikrini erkin og'zaki va yozma shaklda aniq bayon eta olish, to'g'ri so'zlay olish, to'g'ri ovozga ega bo'lish, o'z his-tuyg'ularini to'g'ri intonatsiya yordamida ifodalay olish, nutq madaniyatini kuzatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, biz maktab o'quvchilari bilim olishining hozirgi bosqichida nutq ko'nikmalarini shakllantirishni asosiy vazifalardan biri deb bilamiz.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A.Fomichevalar metodik jihatdan muhim g'oyani ilgari suradilar: "Boshlang'ich sinf o'quvchilarni nutqqa o'rgatish, - deb yozadi ular, - unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma'nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida borliqni baholashni ifodalashni o'rgatish, adabiyot me'yorlarini eslashni osonlashtirishga ko'mak berish demakdir".

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar tomonidan nutqni o'zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda ularga tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo'llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e'tibor qaratadilar. Nutq o'stirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilmagan mashqlar bolalarning bog'lanishli nutqini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsata olmasligi mumkindir. O'quvchilar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o'rgatish sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Nutqni rivojlantirish - bu boshlang'ich sinf o'quvchilarning individual rivojlanishida markaziy o'rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishga oid o'ta murakkab va ko'p omilli jarayondir.

- Bu stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir [5].

Ona tilining bola ruhiy kuchlarini har tomonlama rivojlantirish, til mohiyati va uning vujudga kelishining bosh manbai ekanligi haqidagi ta'limot K.D. Ushinskiy pedagogik ta'limotida markaziy o'rinlardan birini egallaydi hamda uning metodik tizimini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. K.D.Ushinskiy ona tilini birlamchi o'qitishning uchta asosiy maqsadlarini shakllantirgan:

I. So'z imkoniyatlarini rivojlantirish;

II. Boshlang'ich sinf o'quvchiga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish, boshlang'ich sinf o'quvchilarni ona tilining boyliklarini egallashga jalb qilish.

III. Til qonunlarini, uning grammatikasini o'rganish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining so'z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o'rganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e'tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi [4].

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchi lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir»[2].

K.Obuxovskiyning ta'kidlashicha, insonning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu - boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmand, emotsional muloqotga ehtiyojmandlik hisoblanadi [3].

A.F. Koni o'z kitobida "nutqda bir xil iboralarni, hatto bir xil so'zlarni yaqin masofada ishlatmaslikni" tavsiya qilgan [1].

Vaqtı-vaqtı bilan she'rga murojaat qilish, she'r o'qish bilan shug'ullanish tavsiya etiladi, chunki "she'r tilni eng ko'p rivojlantiradi" (Lixachev)[1].

Muhokama.

Nutqi yaxshi rivojlangan o'рта maktab o'qituvchisi eng katta professional muvaffaqiyatga erisha oladi. Hech shubha yo'qki, bunday inson boshqalardan ustundir. Mashhur psixolog K.Delau boshqa hech bir insoniy qobiliyat unga bunday tezlik bilan martaba orttirish va yaxshi so'zlash qobiliyati sifatida tan olinish imkoniyatini bermasligini bejiz aytmagan [5].

Tadqiqotchilar fikricha, nutq madaniyatining kamchiliklari boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari tengdoshlari bilan muloqotda qo'rs, odamovi, quntsiz bo'lib qoladi. Bundan tashqari, bunday o'quvchilarda tevarak-atrofni o'rganishga bo'lgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa maktabda darslarni o'zlashtira olmaslikka sabab bo'ladi.

Pedagogik amaliyot va ilmiy-uslubiy adabiyotlar holatini tahlil qilish boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini shakllantirish muammosini hal qilishdagi kamchiliklar haqida gapiradi:

mavjud didaktik vositalar bolalarning nutq qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha ishlarni to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy malakalarini shakllantirishda pedagogik shart-sharoitlar va ularni amalga oshirish to'liq shakllantirilmagan.

Ushbu qarama-qarshiliklar muammoni hal qilish zarurligini ko'rsatadi. Ta'lim maqsadlaridan biri kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Zamonaviy ta'limdagi bu maqsadga nafaqat nutqni rivojlantirish bilan bog'liq darslarda, balki o'qituvchining tarbiyaviy ishlarida ham erishish mumkin. Ushbu pedagogik masalani hal qilishda boshlang'ich sinflardaona tili va o'qish savodxonligi darslariga ustuvor ahamiyat berish kerak

Xulosa.

O'zbek tilining boy imkoniyatlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarini bahramand qilish boshlang'ich ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Aynan boshlang'ich maktab - bu o'quvchilar og'zaki va yozma adabiy til me'yorlarini o'zlashtirishga intiladigan va til vositalaridan nutqning maqsad va vazifalariga muvofiq foydalanishni o'rganishlari kerak bo'lgan o'quv davridir. Bu jarayonda yetakchi rol o'qituvchiga beriladi. O'qituvchi bolalarga nutq faoliyatiga qo'yiladigan talablarni o'rganishga, iboralarni to'g'ri tuzishga yordam beradi va fikrlarni shakllantirish jarayonida ularning to'g'riligini, shuningdek, tilning aniqligi, rang-barangligi va ifodaliligini nazorat qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy nutqi boshqa insonlarning ongi va faoliyatiga, shuningdek, ijtimoiy o'zaro muloqotda ta'sir qilish maqsadida ularni tushunishga qaratilgan. Shu munosabat bilan uning nutqi sifat jihatidan nutq faoliyatiga qo'yiladigan umumiy talablarni qondirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Babayeva. D. R. Nutq o'stirish metodikasi. 2019y, Toshkent.
2. A.N.Leontov, The complex of intellectual games for the development of children's thinking and speech. Questions of Psychology. - 1990. 6.- S.